

YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI UCHINCHI RENESANS POYDEVORI

leytenant **Ramziddin Mehmonovich Bozorov**

*Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va mukofotlash bo'limi, yoshlar bilan ishlash
guruhi katta inspektori*

Annotatsiya: *Maqolada Yangi O'zbekiston yoshlari uchinchi renesans poydevori ekanligi o'rganilgan. Shuningdek, maqolada Yangi O'zbekiston yoshlari uchinchi renesans poydevori sifatida shakllantirish va mustahkamlash maqsadida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilayotganligi yoritilgan. O'zbekiston yoshlari uchinchi renesans poydevori sifatida qarash va ularga doir ayrim xulosalar berilgan hamda ijtimoiy-siyosiy tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *Yoshlar, yoshlar ishtiroki, uchinchi renesans, subyekt, strategik subyekt, siyosiy jarayonlardagi o'zgarishlar, yoshlarga oid davlat siyosati, yoshlar parlamenti, yoshlar daftari, yoshlar portali, mahalladagi yoshlar yetakchisi.*

KIRISH

Bugun O'zbekistonda yoshlar soni muhim demografik chegarada turibdi. 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar aholining 60 foizini tashkil qilmoqda. Bu mamlakatimiz uchun o'ziga xos qimmatbaho "demografik dividend" deb atashimiz mumkin. Keyingi yigirma yil ichida bugungi yoshlar O'zbekiston tarixidagi eng katta strategik kuchga aylanadi. Demakki, yoshlarni rivojlantirishga sarmoya to'g'ri sarflansa, aynan shu yoshlar O'zbekistonni yangi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga olib chiqadigan strategik subyekt bo'lib shakllanadi. Xalqaro e'tiroflarga ko'ra, yangi O'zbekiston yoshlari jamiyatni o'zgartirishning faol subyektı va modernizatsiya jarayonlari uchun muhim manba, Shuningdek, iqtisodiy o'sish, avlodlar farovonligini ta'minlash yo'lida bebaho inson resursidir. Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarning qonuniy huquqlari va manfaatlarini ta'minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Asosiy qism. Bugungi kunda 3-renessans har jabhada o'z mevasini berishni boshladi. Qaysi sohani olmang albatta katta islohotlar ketmoqda. Biz yoshlar uchun imkoniyatlar eshigi shunchalik ochiqki, buni e'tirof etmaslik – katta xatodir! Birgina "Besh Tashabbus" loyihasini namuna qilib oladigan bo'lsak qanchadan-qancha yoshlarni jamiyatning turli sohalarida – kitobxonlik, sport, san'at – bir umum maqsad ortida birlashtirdi. "Avvalgi davrlarda (birinchi va ikkinchi uyg'onish davri), qanday omillar bor ediki, Farobiylar, Buxoriylar, Xorazmiylar muqaddas tuproq ustida bisyor edilar? Va nima bo'ldiki hozir bunday butun olam uzra nomi ma'ruf bo'lgan qomusiy olimlar yo'q? Bilmadim". Shu kabi savollar qandaydir, tez-tez hayolimga keladigan bo'ldi. Shunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so'zlariga duch keldim: "O'tgan asrning boshlarida yurtparvar, millatparvar bobolarimiz — „jadidchilik“, ya'ni, yangilanish va erkinlik, adolat va tenglik, ilm-ma'rifat va milliy o'zlikni anglash g'oyalarini bayroq qilib, kurash maydoniga mardona chiqqanlarini barchamiz yaxshi bilamiz, chor mustamlakachilik siyosati yangicha shaklda davom

ettirilgani ma'rifatparvar bobolarimizga o'z maqsad-muddaolarini to'liq amalga oshirish imkonini bermadi. Lekin ularning ezgu orzu-niyatlari xalqimizning qon-qonida, tarixiy xotirasida saqlanib qoldi va hanuz yashamoqda, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz". O'tgan asrlarda ham o'zbek diyorida bir qancha taraqqiyot mash'alasini yelkasi uzra ko'tara biladigan jadid bobolarimiz ajrab chiqishgan. Ammo zamon og'irligi tufayli, hurriyatimiz o'z qo'limizda emas balki chor Rossiyasi tarafida ekanligi bunga katta g'ov bo'lgan. Endi bugungi kunimizga nazar solsak, bizni kim taraqqiyotdan, yuksalishdan (renessansdan) judo qilyapti? Faqatgina o'zimiz. Axir bizning qonimizda buyuk olimlar ulamolar qoni oqmoqda! Bizning maqsadimiz ilm yo'lida dunyo peshqadamlaridan bo'lish emasmi?

Uchinchi Renessans davri, asosan, quyidagi omillar bilan ajralib turadi:

Texnologik inqilob: Sun'iy intellekt, robototexnika, gen muhandisligi, kvant kompyuter texnologiyalari kabi sohalarda ulkan rivojlanishlar.

Ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar: Globallashuv, kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi, yangi madaniyat va qadriyatlarning paydo bo'lishi.

Ekologik onglik: Iqlim o'zgarishlari, resurslar tanqisligi va atrof-muhit muhofazasi masalalariga bo'lgan e'tiborning ortishi.

Ilmiy kashfiyotlar: Fundamental va amaliy fanlarda yangi kashfiyotlar, kosmosni o'rganishdagi ilg'or natijalar.

Bu davrning asosiy xususiyati insoniyatning turli sohalarda ulkan yutuqlarga erishishi va bu orqali jamiyatni yangi darajaga olib chiqishidir. Uchinchi Renessans davri, shuningdek, insoniyat oldida turgan muhim muammolarni hal qilishga qaratilgan innovatsiyalar va yangiliklar davri ham bo'lishi mumkin.

Uchinchi Renessans poydevori bir nechta asosiy omillar va jarayonlarga tayangan holda shakllanadi. Bu omillar hozirgi vaqtda ilmiy, texnologik, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarning tezlashuvi bilan bog'liq. Quyida Uchinchi Renessans poydevoriga asos bo'ladigan asosiy elementlar keltirilgan:

1. Texnologik yutuqlar

Sun'iy Intellekt (AI): AI texnologiyalari inson faoliyatining ko'plab sohalarida inqilob qildi, jumladan, tibbiyot, transport, ta'lim va sanoat.

Kvant kompyuter texnologiyalari: An'anaviy kompyuterlar bilan erishib bo'lmaydigan muammolarni hal qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Robototexnika: Ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash, logistika va kundalik hayotda keng qo'llanilmoqda.

Gen muhandisligi va biotexnologiya: Genetik muhandislikning rivojlanishi tibbiyot va qishloq xo'jaligida katta yutuqlarga olib kelmoqda.

2. Ilmiy kashfiyotlar

Kosmik tadqiqotlar: Mars va boshqa sayyoralar missiyalar, yangi sayyora va galaktikalar kashf etilishi insoniyatning kosmosdagi o'rnini kengaytirmoqda.

Fundamental ilmiy tadqiqotlar: Fizika, kimyo, biologiya va boshqa sohalarda yangi kashfiyotlar va nazariyalar.

3. Ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar

Globallashuv: Dunyodagi davlatlar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar kuchayishi.

Kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi: Internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi orqali axborot va bilimning tez tarqalishi.

Madaniy diversifikatsiya: Turli madaniyatlar va qadriyatlarning bir-biriga singishi.

4. Ekologik onglilik

Iqlim o'zgarishi: Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, ekologik toza texnologiyalarning rivojlanishi.

Barqaror rivojlanish: Resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni kamaytirish.

5. Iqtisodiy innovatsiyalar

Raqamli iqtisodiyot: Kriptovalyutalar, blockchain texnologiyalari va raqamli to'lov tizimlari.

Ijtimoiy tadbirkorlik: Jamiyatning muhim muammolarini hal qilishga qaratilgan tadbirkorlik.

6. Ta'lim va bilimning yangi formatlari

Onlayn ta'lim: Onlayn kurslar va platformalar orqali bilim olish imkoniyatlari kengayishi.

Doimiy ta'lim: Hayot davomida uzluksiz ta'lim olish zarurati va imkoniyatlari.

Ushbu omillar Uchinchi Renessans davrining poydevorini tashkil etadi va insoniyatning yangi yuksalish davriga kirishiga asos bo'ladi.

Sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, ularni mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarning faol va be'vosita ishtirokchisi, jamiyatning haqiqiy tayanchi va suyanchiga aylantirish mamlakatimizning ustuvor va strategik vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Xususan, keyingi 7 yilda yoshlar siyosati samaradorligiga oid jami 100 ga yaqin qonun va qonunosti hujjatlari, jumladan, 2016-yil 14-sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" gi qonuni qabul qilindi. 2017-yil 30-iyunda O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etilib, uning asosiy maqsadi yoshlarning barcha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va amalga oshirishga qaratildi. Shuningdek, mamlakatimizda 2024-yil – Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili, deb e'lon qilinganligi ham yurtimiz yoshlarining mamlakatimiz ravnaqi va yuksalishi, fuqarolarning farovon turmush, munosib hayotga ega bo'lishi, jahondagi ilg'or jamiyatlar safidan o'rin olishi kabi maqsadlarni hayotga tatbiq etishdagi o'rni va roli zalvorli ekanligining e'tirofi bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. O'z navbatida, Prezident taklifiga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasida yoshlar kunini belgilash to'g'risida" gi qonun bilan 30-iyun – "Yoshlar kuni" deb e'lon qilindi. Ushbu sana har yili yurtimizda alohida tantana sifatida nishonlanib kelinmoqda. Joriy yil ham yoshlar kuni mamlakatimizda o'zgacha ruhda tashkil etilib, bayram sifatida kutib olindi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev shu kuni yurtimiz yoshlariga tabrik yuborib, mamlakatimiz hayotidagi qutlug' ayyom – Yoshlar kuni bilan samimiy muborakbod etdilar. Shuningdek, tabriklarida: "O'z oldimizga qo'ygan ulkan maqsadlarimiz ijobatini, Yangi O'zbekiston kelajagini butun el-yurtimiz qatori sizdek azmu shijoatli farzandlarimiz bilan bog'liq holda ko'ramiz. Shu bois, yoshlarning

huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularni kamol toptirish davlatimiz siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida doimo e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda" ekanligini alohida ta'kidladilar. Bu haqda so'z yuritganda, so'nggi yillarda yurtimizda yoshlar bilan ishlash bo'yicha dunyoda o'xshashi kam bo'lgan vertikal boshqaruv tizimi yaratilganini ta'kidlash lozim. Bu esa mahallalardagi Prezident vakillari bo'lgan yoshlar yetakchilari orqali qancha-qancha yigit-qizlarni kasb-hunarga o'qitish, bandligini ta'minlash, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq ko'plab masalalarni quyi bo'g'inning o'zida hal etish imkonini bermoqda. Jumladan, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish, yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish, vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston yoshlar ittifoqi hamda Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi. Bundan tashqari, Oliy Majlis Senatida Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi, Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya, Oliy Majlis palatalari huzurida "Yoshlar parlamenti" tashkil qilindi. Shu bilan birga Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tashkil etildi. Hududlarda "Loyihalar fabrikasi" ish boshladi. Mazkur ishlar natijasida O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgandan buyon 841 147 nafar yoshning bandligi ta'minlandi. 2024-yilning birinchi yarmida Yoshlar ishlari agentligi tomonidan 78 140 nafar yosh ishga joylashtirilgan bo'lib, 5 684 nafar yoshga subsidiyalar ajratildi, ijtimoiy himoyaga muhtoj 127 nafar talabaning 350 million so'mlik to'lov shartnoma mablag'lari to'lab berildi. Yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularning tashabusini moliyalashtirish maqsadida 2018-yildan boshlab hududlarda 25 ta "Yosh tadbirkorlar" koworking markazi va 157 ta "Yoshlar mehnat guzari" kompleksi faoliyat boshladi. "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi doirasida respublikaning tuman va shaharlarida amalga oshiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusni targ'ib qilish va ro'yobga chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Tegishli loyihalar, jumladan, "Sport karvoni", "Bir million dasturchi", "Eng yaxshi kitobxon oila" kabi loyihalar amalga oshirilmoqda. Turli sohalarda samarali faoliyat yuritayotgan, yuqori natijalarga erishib, tengdoshlariga o'rnak bo'layotgan yigit-qizlarni rag'batlantirish maqsadida "Mard o'g'lon" davlat mukofoti va "Kelajak bunyodkori" medali ta'sis etildi. O'tgan vaqt davomida 113 nafar yosh "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan, 75 nafari esa "Kelajak bunyodkori" medali bilan mukofotlandi.

Eng quvonarli yangiliklardan biri, shubhasiz, davlat oliy ta'lim muassasalari bakalavriyatining kunduzgi ta'lim shakliga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yosh uchun davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti granti joriy qilinganidir. Oldingi yillarda ayrim oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda eng yuqori ball to'plagan abituriyent to'lov-shartnoma asosida qabul qilinishi holatlari ham kuzatilgan. Bunday adolatsizlik aholining, birinchi navbatda, yoshlarning katta e'tiroziga sabab bo'lgan. Prezident grantining joriy etilganligi yoshlarga ta'lim olishi

uchun keng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi. Mazkur grant sohiblariga a'lo o'qishi, ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarida yutuqlarga erishgani uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi tayinlanishi ham yoshlarga berilayotgan katta imkoniyatlardan dalolat beradi.

Bunday islohotlar o'laroq, Ichki ishlar akademiyasida ham kursantlar ta'lim olishi uchun ko'plab shart-sharoitlar yaratilgan. So'nggi yillarda kelajagimiz vorislarining munosib bilim olishi, o'z orzu-havaslarini ro'yobga chiqarishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilib, yoshlar bilan ishlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va muammolarini hal etishning samarali mexanizmlari hayotga tatbiq etildi. Buning ezgu ishlar samarasi o'laroq, yoshlarimiz zamonaviy kasb-hunarlarini puxta egallab, jamiyat hayotidan mustahkam o'rin olishmoqda. Ichki ishlar organlarining faoliyat samardorligi kadrlar salohiyati, kasbiy va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga bog'liq. O'tgan yillar mobaynida soha uchun mutaxassislar tayyorlash jarayoni takomillashtirilib, joylarda vazirlik akademik litseylari, ixtisoslashtirilgan maktab-internati hamda "Temurbeklar maktabi" Nukus harbiy-akademik litseyi tashkil etildi. Akademiyaning kunduzgi ta'limiga mazkur o'quv maskanlari bitiruvchilari, shuningdek ichki ishlar organlari xodimlari hamda profilaktika inspektorlarining yordamchilari qabul qilinmoqda. Bu ham ta'lim samaradorligini yanada oshirishga imkon bermoqda. Biroq mazkur sohada hali qilinadigan bir qator vazifalar mavjud va bu islohotlar sur'atini shiddat bilan davom ettirishni talab etmoqda. Yangi tizimga ko'ra, endilikda kadrlar tayyorlash ikki – bakalavriat va magistratura yo'nalishida amalga oshiriladi. Shuningdek, Ichki ishlar vazirining 2023-yildagi buyrug'iga asosan, akademiya bakalavriat ta'lim yo'nalishini imtiyozli diplom bilan tamomlagan, shuningdek o'qish davrida "Ichki ishlar vazirining Jaloliddin Manguberdi nomidagi stipendiyasi" va "Ichki ishlar vaziri stipendiyasi" faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan bitiruvchilari "ilmiy-pedagogik faoliyat" mutaxassisligiga tanlovsizlar qabul qilinishi belgilandi. Ta'kidlab o'tilganidek, davlatimiz rahbarining "Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida joriy o'quv yilidan boshlab Akademiya ikki bosqichli oliy ta'lim, ya'ni "Modulli o'qitish "tizimi yo'lga qo'yildi. Davlatimiz rahbarining yuqorida qayd etilgan qarori ijrosini ta'minlash maqsadida IIV Akademiya tomonidan qator takliflar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi. Jumladan, o'quv jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligini mustahkamlash maqsadida vazirlik huzuridagi sohaviy xizmatlarning ixtisoslashtirilgan kafedralarga amaliy va metodik yordam ko'rsatib borishi yo'lga qo'yildi. Mutaxassislik kafedralari professor-o'qituvchilari va kursantlaridan iborat o'quv tergov-tezkor guruhlari Toshkent shahrida sodir etilgan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar bo'yicha hodisa joyiga chiqqan holda amaliy ko'nikmalarini shakllantirib boradilar. Bundan tashqari, kursantlarning bazaviy amaliyoti poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek, Yunusobod va Yashnobod tumanlari bo'yicha ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmalari, ichki ishlar bo'limlari, ularning tarkibidagi sohaviy xizmatlar hamda mahalla huquq-tartibot maskanlarida tashkil etiladi. Hududiy ichki ishlar organlari boshliqlari tomonidan har oyda kamida bir marotaba Akademiya bakalavriatining tegishli hududdan jamlangan kursantlari, magistratura tinglovchilari va

ixtisoslashtirilgan kafedralar professor-o'qituvchilari bilan hududning kriminogen vaziyati hamda o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishning dolzarb masalalari bo'yicha onlayn master-klass mashg'ulotlari o'tkazib boriladi. Shuningdek, vazir o'rinbosarlari hamda sohaviy xizmatlar rahbarlari har oyda kamida bir marotaba magistratura tinglovchilari bilan olib borilayotgan o'quv mashg'ulotlarida bevosita ishtirok etib, ta'lim mazmunining amaliyot bilan uzviylikini ta'minlashga hissa qo'shadilar. Bugun Yangi O'zbekistonda yana bir muhim Uyg'onish jarayoni kechmoqda, davrning keskin talablaridan orqada qolmaslik uchun professor-o'qituvchilarimiz "ta'lim jarayonining lokomotiv"lari sifatida o'quv-tarbiya jarayonini mutlaqo yangicha yondashuv asosida olib borishmoqda. Kursant yoshlarimizning bilimi, jangovar-jismoniy tayyorgarligi, dunyoqarashi, ma'naviy-intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik, g'urur, iftixor, kasbiga nisbatan sadoqat va yuqori mas'uliyat hislarini oshirish eng ustuvor vazifamizga aylanmog'i lozim.

Farzandlari bilimli, iste'dodli, o'zining kuchi va salohiyatiga ishonib, doimo oldinga intilib yashaydigan xalq va davlatning istiqboli albatta yorug' bo'ladi. Biz O'zbekiston yoshlarini ana shunday ezgu fazilatlar sohiblari etib tarbiyalash uchun bundan buyon ham bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz. Hech qachon unutmazlik lozimki, bizlar yoshlikning har bir daqiqasini g'animat bilib, doimo bunyodkorlik va ijodkorlik hissi bilan, Vatanga cheksiz mehr va sadoqat tuyg'usi bilan yashasangiz albatta kam bo'lmaysiz.

Xulosa: Muxtasar aytganda, so'nggi besh yil davomida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni komil inson sifatida yetishi uchun zamin yaratildi. Yoshlarga berilayotgan bu e'tibor, oxir-oqibat, o'z mevasini bermoqda. Bunga yoshlarimiz xalqaro va respublika miqyosida erishayotgan yutuqlari yaqqol dalildir. Mazkur islohotlarning samarasi o'laroq kelajagimiz bunday yoshlar qo'lida porloq bo'lishiga hech qanday shubha yo'q. Chunki aynan bugungi yoshlar ertangi kunimizning, Yangi O'zbekistonning, Uchinchi Renessansning poydevori hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.:O'zbekiston, 2021 y, - B 259-262.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi

O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. 70-maqсад <https://lex.uz/docs/5841063>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 19 yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-92-son Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/5831865>

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 yanvardagi "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 23-son Qarori. <https://lex.uz/docs/5234746>

5. https://parliament.gov.uz/uz/events/opinion/34996/?sphrase_id=8084397
6. <https://xs.uz/uzkr/post/yoshlar-qanoti-vakillari-izhtimoiy-siyosiy-zharayonning-faol-ishtirokchilari>
7. <https://parliament.gov.uz/uz/events/committee/38744/>
8. I.Ergashev, Xudaynazarov.A.O'. O'zbekiston jamiyati boshqaruvida yoshlar faolligini oshirishning ma'naviy omillari. Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali, 5 son, 3 jild. Toshkent - 2020. - b.79-86.
9. Ergashev I., Po'latova N., Xudaynazarov A.O'. O'zbekiston yoshlarining faolligini oshirish omillari va istiqbollari. Ilm sarchashmalari. Ilmiy-metodik jurnal. Urganch, 2020 y, № 4, - b. 15-18.
10. Xudaynazarov.A.O'. O'zbekiston yoshlarining faolligini yuksaltirishda ijtimoiy-siyosiy islohotlarning o'rni. O'zMU xabarlar. 2021 y, № 1/4. - b. 175-177.
11. Xudaynazarov.A.O'. Yoshlar bandligini ta'minlash: ayrim muammo va yechimlar. "Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy o'zgarishlar" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent: 2021 yil 28 sentyabr. 180-184 b.
12. Xudaynazarov A.U. Rol reform v povыshenii aktivnosti molodeji uzbekistana v sotsialno-politicheskix protsessax. Ekonomika i sotsium, 2021 4-2, 661-665.
13. Khudaynazarov.A.U. Factors for Increasing the Activity of Youth of Uzbekistan in the Field of Science and Education. Middle East Journal of Applied Science & Technology, Vol.5, Iss.1, Pages 33-37, January-March 2022.O'zMU xabarlar Vestnik NUUZ ACTA NUUZ FALSAFA 1/5 2023 - 206
14. Saparbaev B.A, Khudaynazarov A.U. The Role of Reading in Increasing the Activity of Youth in Socio-Political Processes. Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 23 Apr, 2022. 222-226.
15. Xudaynazarov A.O'. Yoshlarni ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faolligini yuksaltirish: yoshlar bandligi. QarDU xabarlar. 2022. - № 3/2(52) – b. 66-71.
16. Xudaynazarov A.O'. Yoshlarni ijtimoiy-ma'naviy hayotda faolligini oshirishning ustuvor vazifalari. O'zbekiston Milliy universiteti xabarlar. 2022 y, № 1/4/1. 182-185.
17. Ergashev Ibodulla, Abdullayev Barxayotjon Bo'riyevich, Xudaynazarov Azamatjon O'rinbayevich & Berdiyeva Muattar Ibodullayevna. Transformation of Youth and the System of Values. Mediterranean Journal of Basic and Applied Sciences (MJBAS) Volume 6, Issue 4, Pages 24-32, October-December 2022.
18. Khudaynazarov A.U. Youth of Uzbekistan as a subject of changes in political processes. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 3, Mar., 2023. P 1455-1464.